

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Басилов В.Н. Культ святых в исламе. Москва, Изд "Мысл", 1970.-с.41.{Basilov V.N. 1970.The cult of saints in Islam. Moscow, "Thought" Publishing House, -p. 41.}
2. Болхосев С.Б. Дух песня // Материалы IV конгресс этнографов и антропологов России. Санкт-Петербург, 2005. –с. 196. {Bolkhosev S.B. 2005.The spirit of the song // Proceedings of the IV Congress of Ethnographers and Anthropologists of Russia. St. Petersburg, –s. 196}
3. Богатырев П.Г. Вопросы теории народного искусства. М., 1971, с.393.{Bogatyrev P.G. 1971.Questions of the theory of folk art. M., p. 393}
4. Грачева Г.Н. Традиционное мировоззрение охотников Таймыра (на материалах Нганасан XIX — начала XX в.). Л., 1983, с.56.{Gracheva G.N. 1983, The traditional worldview of hunters of Taimyr (based on Nnganasan materials of the 19th - early 20th centuries). L., p. 56}
5. Гемуев И.Н., Сагалаев А.М. Религия народа манси. Культурные места XIX – начала XX в. Новосибирск, 1986, с.68. {Gemuev I.N., 1986, Sagalaev A.M. Religion of the Mansi people. Religious places of the 19th - early 20th centuries Novosibirsk, p. 68.}
6. Зализняк А.А., Иванов Вяч. Вс., Топоров В.Н. О возможности структурно-типологического изучения некоторых моделирующих семиотических систем / Структурно-типологические исследования. М., 1962, с.136.{Zaliznyak A.A., Ivanov Vyach. Sun., Toporov V.N. 1962,About the possibility of structural-typological study of some modeling semiotic systems / Structural-typological studies. M., p.136;}
7. Мелетинский Е.М. Миф и сказка / Фольклор и этнография. Л., 1970, 146.{Meletinsky E.M. 1970,Myth and Tale / Folklore and Ethnography. L., 146.}
8. Мелетинский Е.М. Первобытные истоки словесного искусства / Ранние формы искусства. М., 1972, с.185; {Meletinsky E.M. 1972,The primitive origins of verbal art / Early forms of art. M., p. 185;}
9. Смоляк А.В. Представления нанайцев о мире / Природа и человек в религиозных представлениях народов Сибири и Севера. Л., 1976, с.158.{Smolyak A.V. 1976, Representations of the Nanai people about the world / Nature and man in religious representations of the peoples of Siberia and the North. L., p. 158}
10. Токарев С.А. Сущность и происхождение магии // Исследования и материалы по вопросам первобытных религиозных верований. М., 1959 (ТИЭ.Т. 51).{Tokarev S.A. 1959, The essence and origin of magic // Studies and materials on the issues of primitive religious beliefs. M., (TIE.T. 51).}
11. Токарев С.А. Ранние формы религии и их развитие. М., 1964, с.27. (Tokarev S.A. Early forms of religion and their development. M., 1964, p. 27.)

### ONA TILI VA ADABIYOT TA'LIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

*M.Abdullayeva*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*

*Annotatsiya: Maqola o'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish dars jarayonida qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar, elektron ta'limiy resurslar va ularga qo'yiladigan talablar, bu boradagi chet el tajribasi haqida ma'lumot olish, axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur*

*ko'nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi haqida ilmiy xulosalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Test dasturlari, mashq qildirgichlar, o'rgatuvchi dasturlar, o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhit.*

O'zbekiston Respublikasining "Harakatlar strategiyasi"da "Fan va ta'lim" yo'nalishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda har bir ta'lim beruvchining oldiga dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddabron, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirishda o'qitish amaliyotiga zamonaviy va jahonning ilg'or ta'lim texnologiyalarini qo'llashni davr taqozo etmoqda.

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limni rivojlantiruvchi yangi tamoyillarga asoslanishi, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Bugungi kunda o'zbek tili va adabiyot o'qitishda innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim oluvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etish imkonini bermoqda. Shuning uchun ham o'zbek tili va adabiyot o'qitish texnologiyalari bazasida kompleks o'qitish vositalari konsepsiyasini ishlab chiqish hamda konsepsiya doirasida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq muammolarni hal etish eng muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida "Elektron ta'lim" milliy tizimini yaratish, investitsiya loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012 yil 16 apreldagi PQ-1740-son qarori ta'lim sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan xabardor bo'lishga zamin yaratdi.

Elektron pedagogikaning asosiy maqsadi zamonaviy AKT muhitida o'qitish-ta'lim jarayonini samarali tashkil etishdir. Elektron pedagogikaning predmeti pedagogik tizim hisoblanadi. Pedagogik tizim qo'yidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi, o'quvchi, ta'limning maqsad va vazifalari, o'qitish mazmuni, o'qitish shakl, usul va vositalari. Zamonaviy AKT ushbu komponentlarga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi pedagogni o'quv jarayonida ta'lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi.

"Endi pedagog:

- o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi;
- o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- kompyuter- o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishi talab

etiladi".[4;159.]

Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan birga, yangi o'quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalana olishi, internet, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi, darsga metodik va didaktik materiallarni tayyorlashi, qo'shimcha axborotlarni topishi hamda kompyuter texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etishlari zarur. Bu jarayonda o'quv elektron vositalari kontseptual tamoyillar asosida yaratiladi. Bular:

- *Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili.*
- *Integratsiya tamoyili.*
- *To'laqonlilik tamoyili.*
- *Yaxlitlik tamoyili.*
- *Ochiqlik tamoyili.*

Pedagogik dasturiy vositalar (PDV) – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

“Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

– **o‘rgatuvchi dasturlar** – o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;

– **test dasturlari** – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;

– **masiq qildirgichlar** - avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

– **o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini** shakllantiruvchi dasturlar”. [1;12].

Ona tili va adabiyot darslarida elektron ta‘lim resurslari, videolavhalar animatsiyalar, elektron matnlar, ovozli obrazlardan (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar), multimedia materiallaridan foydalanish ta‘lim sifatini oshirish omillaridir. Shu asosda o‘qituvchi elektron ta‘lim resurslarini tayyorlovchi dasturlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi va bu dasturlarni amaliy jarayonda foydalana olishi zarur. Agar yangi mavzuga oid “Taqdimot”ni pedagogik dasturiy vosita sifatida qarasaq, uni tayyorlashga qo‘yiladigan talablarni o‘rganishimiz maqsadga muvofiqdir.

1. **Didaktik talablar** – ilmiylik, tushunarli, qat‘iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o‘quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta‘minlash.

2. **Metodik talablar** - o‘quv mavzusining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari asosida taqdim etish, o‘zaro bog‘liqlikdagi texnologiyani nazarda tutadi.

3. **Psixologik talablarda** - idrok etish, xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

4. **Estetik talablar** - tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o‘lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko‘rsatmali material sifatida foydalanish, o‘quv materialining animatsiyalar shaklida berilishi o‘tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi.

Zamonaviy o‘quv jarayonini taqdimotsiz tasavvur qilish mumkin emasligini M.Najmiddinova shu mavzudagi maqolasida alohida ta‘kidlagan edi. ”Slaydlarni tayyorlashda shriftlarga, shriftlarning minimal balandligiga, ranglarning didaktik funksiyasiga va ranglarni ishlatishga, rang ta‘siriga, slaydlarni ishlatish usullariga va slaydlarning mantiqiy harakatlarga mosligiga taalluqli eslatmalar o‘ziga xos e‘tiborni talab etadi. Chunki slaydlar ta‘lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi”. [8; 18-21.].

Bugungi kunda umumta‘lim maktablarining ona tili va adabiyoti darsligi asosida yaratilgan elektron ta‘lim resurslari talab darajasida emas. Ayniqsa, 9,10,11- sinf ona tili va adabiyot darsliklari uchun axborot texnologiya dasturlari mavjud emas. Shundan kelib chiqib, ona tili va adabiyot o‘qitishda yangi elektron resurslarni yaratish muammosini atroflicha hal etish uchun kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari doirasida tadqiqot ishlari olib borilishi kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biridir. Shuningdek, mohir metodist, tajribali fan o‘qituvchilari, iqtidorli talabalarning jalb qilinishi ham bu muammoni yechishga xizmat qiladi. Ta‘lim samaradorligiga ta‘sir etuvchi axborot texnologiyalari - taqdimotlar, videodarslar, interaktiv-audeo mashqlar, test topshiriqlari, elektron lug‘atlarning namunalari tayyorlash loyihalari ishlab chiqilishi zarur. Bu esa o‘z navbatida, Microsoft Word, Microsoft Power Point, Ispring, Microsoft Office Publisher, HotPotatoes, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media va boshqa amaliy va mualliflik dasturlari imkoniyatlarini chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Bu dasturlar asosida elektrton darsliklar, multimedia ishlanmalari, elektron boshqotirmalar, elektron kitoblar, elektron testlar, virtual lobarotoriya, virtual muzeylar yaratish imkoniyati katta. Jumladan, Ispring xalqaro dasturidan foydalanib, umumta‘lim fanlari uchun test topshiriqlarining 10dan ortiq turini ishlab chiqish mumkin. Ispring Suite dasturi o‘zida Ispring Pro, Ispring QuizMaker va Ispring Kinetics dasturlarini jamlagan. Bunda elektron kitobcha, elektron katalog,

taqdimot, multimedia materiallari tayyorlash mumkin. “O‘zbek filologiyasi”, “O‘zbek tili va adabiyoti” fakulteti 2-bosqichida o‘qitiladigan “Dasturlash asoslari va zamonaviy axborot texnologiyalari” modulida aynan shunday xalqaro ta’limiy dasturlar haqida nazariy ma’lumotlar beriladi va amaliy ko‘nikmalar hosil qilinadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida har bir fan doirasida qo‘llaniladigan maxsus saytlarning imkoniyatlaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limiga oid [www.metodist.uz](http://www.metodist.uz), [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz), [www.adib.uz](http://www.adib.uz), [www.khurshiddavron](http://www.khurshiddavron), [www.abdullaorif](http://www.abdullaorif) maxsus saytlari mavjud.

Bizga ma’lumki, Internet tarmog‘ida ma’lumotni o‘zida saqlab turuvchi sahifa yoki sahifalar majmui saytda aks etadi. Bu sahifalardagi ma’lumotlardan dunyo bo‘yicha istagan kishi xohlagan vaqtda foydalanishi, shuningdek, xohlagan kishi o‘z ma’lumotlarini kiritishi, ya’ni o‘z saytini yaratishi mumkin. Pedagogning global va milliy ta’limdagi barcha yangilanishlardan xabardor bo‘lishi, tez o‘zgarib borayotgan jarayonlarga moslashish imkonini beradi. Shunday ekan, o‘qituvchilar uchun asosiy Internet sayt va resurslardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

<http://ziyonet.uz> –O‘zbekiston milliy ta’limiy portali;

<http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti;

<http://ensiklopediya.uz> – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti;

<http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti sayti;

<http://ziyo.uz.com> –Elektron kutubxonasi;

<http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi;

<http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti;

<http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxonasi markazi;

<http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta’lim sayti;

<http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi;

<http://translate.google.co.uz> – Google –tarjimon sayti;

<http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi;

<http://txt.uz> – Elektron kutubxonasi;

<http://kursy.uz> –O‘quv markazlari va kurslari katalogi;

<http://www.uzedu.uz> – Xalq ta’limi vazirligining rasmiy sayti;

<http://www.edunet.uz> /metodist;

<http://www.mtrk.uz> – milliy teleradiokompaniya veb sayti.

Bugungi kunda Ziyonet axborot ta’lim portali yoshlarni, o‘qituvchilarni, shuningdek, aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan ta’minlashda, AT sohasida kerakli ma’lumotlarni berishda hamda muloqot qilish va tajriba almashinish uchun zarur imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili va adabiyoti ta’limida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanni o‘qitish metodikasida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish dars jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar, elektron ta’limiy resurslar va ularga qo‘yiladigan talablar, bu boradagi chet el tajribasi haqida ma’lumot olish, axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko‘nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Muhamedova S., Abdullayeva M., Yuldasheva Sh., Eshmatova Yu. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2018. – B. 162.

2. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 60 p.

3. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.

4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
5. Yusupova Sh., G'oziyeva O. Ona tili o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013. -134 b.
6. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug'ati. – T.: TDPU, 2002. – 27 b.
7. Elektron darslik va elektron o'quv qo'llanmalari elementlariga texnik, gigienik va ergonometrik talablar. –Toshkent, 2015.
8. Najmiddinova M. Ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati // Talim texnologiyalari. – Toshkent: 2006. -№ 1. – B. 18-21.

## **ТАЪЛИМНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМЛИГИ ВА УНИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ АҲАМИЯТИ**

*Алибеков Даврон Абдурақибович*

*Ўзбекистон Миллий университетининг Жиззах филиали  
Психология кафедраси мудири, фалсафа доктори (PhD)*

**Аннотация:** *Мазкур мақолада таълимни инновацион ривожлантиришнинг муҳимлиги, таълим тизимини ривожлантиришида инсон омили, таълим жараёнлари ва ижтимоий ҳаёт ўртасидаги қонуниятлар ҳамда таълим тизимини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари ҳақида сўз юритилади.*

**Калим сўзлар:** *Таълим, ривожлантириш, инсон, давлат, жамият, объект, субъект, гоя, қонун, қонуният, тизим, жараён, ижтимоий, иқтисодий, маданий, маънавий, субстанция, методология, принцип, мезон, омил, асос.*

Таълим шахсининг ўзини ўзи ривожлантириш қобилиятини рўёбга чиқариб, унинг дунёқараши, тафаккурини бойтади, инсон ҳаётига ижодкорлик руҳини бахш этади. Таълим жамият ва унинг аъзолари маънавий эҳтиёжларини қондириш билан боғлиқ шароитлар, мажбуриятлар ва имкониятлар кўринишида намоён бўлади, ижтимоий жараёнлар ва муносабатларни мустахкамловчи, кўллаб-қувватловчи ҳамда мувозанатини сақловчи омилдир. Таълим тизими жамиятда ижтимоий барқарорликни, одамларнинг турмуш тарзини, инсон такомилини камраб олган мураккаб тизимдир.

Таълим ғоят серқирра ва кенг тармоқли ижтимоий организмдир. Таълим одамлар ўртасида амал қиладиган ахлоқий, диний, сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий, маънавий ва мафкуравий муносабатларнинг ғоявий жиҳатдан таъминотини, замонавий руҳда талқин этганда уларнинг жамиятда инновацион амалиётини рўёбга чиқариш механизмларини ўзида мужассам этади. Бу эса, таълим субъектлари ва маданий борлиқ ўртасидаги умумий алоқадорликка доир қонуниятларга тўла мос келади. С.Лебедевнинг таъкидлашича, “Таълимни фалсафий тушуниш инсон борлиғи ва тафаккур тарзини тасаввур этишнинг жамият ўзгариши ва ривожланиши билан боғлиқ умумий қонуниятларига асосланган билимларни йиғиндисидан иборатдир. Фалсафий жиҳатдан бундай умумийлаштиришнинг мазмунида моддий ва маънавий дунёни ташкил этувчи ҳар бир нарсани ўз даражаси жиҳатдан таҳлил қилиш, педагогик жиҳатдан эса, таълим жараёнини лойиҳалаштиришнинг босқичли ва истиқболли хусусиятларини таҳлил этиш ётади”[1].

Таълим тизимини инновацион ривожлантиришни назарий ва амалий жиҳатларини тушуниш, уни фалсафий жиҳатдан идрок этишда қуйидаги жаҳонда эътироф этилган хусусиятларни эътиборга олиш муҳим аҳамиятга моликдир :

1. Тезкор ўзгариб бораётган, тараққиёт кўлами кенгайиб бораётган замонавий шароитда жамиятни жадал ислоҳотларга инсонларни ҳар томонлама тайёрлаш;
2. Глобаллашув анъаналарининг тезкор кириб келиши, ахборотлашган жамият кенг кўламли хусусиятлари жадал намоён бўлаётган бир даврда халқаро илмий ва